

## ILMIY TADQIQ METODOLOGIYASI

*Tojiboyeva Mushtariy Rustam qizi*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada metodologiya terminining mazmun-mohiyati haqida chuqur mulohaza olib borilgan, tadqiqotchi ilmiy ish ustida kamida uch omilni mujassamlashtirishi va uni ilmiy tadqiqda namoyon eta olishi bu metodologiya ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** metod, metodologiya, bilish, fahmiy, hissiy bilish, konseptuallashish, nominalistik yondashish, dialetik yondashish.

Metodologiya, metodika va metod uzviy aloqador bo‘lgan tushunchalar bo‘lib, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish yoki tushuntirish mumkin emas. Shuning uchun garchi, ushu maqola “Ilmiy tadqiq metodologiyasi” deb nomlangan bo‘lsa-da, bu yerda birdaniga metodika va metod tushunchalari bilan ham tanishib borish maqsadga muvofiqdir. Fanshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlarida metodologiya tushunchasi keng qo‘llaniladi. Metodologiya yunoncha *metodos* – “**tadqiqot**”, “**o‘rganish**” va *logos* – “**ta’limot**”, “**so‘z**” kabi ikki birlikdan tashkil topgan, lug‘aviy ma’nosi – “metod haqida ta’limot”. Lug‘atlarda metodologiya tushunchasi “ilmiy tadqiq metodlari haqida ta’limot, ma’lum bir fanda qo‘llaniladigan metodlar majmuasi” sifatida tushuniladi. Lekin metodologiya ma’lum bir fandagina qo‘llanadigan metod, tahlil usuli haqidagi ta’limot emas, balki tadqiqotchining tadqiq manbayini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi, tadqiqotdan qanday maqsadni ko‘zlashi, ya’ni tadqiqotchining dunyoqarashi degan mazmun-mohiyatga ega bo‘lib, bu so‘zning etimologik-lug‘aviy ma’nosidan anglashiladigan metod haqidagi ta’limot ta’rifidan bir muncha keng va chuqurroq. Shuning uchun bir qarashda uning lug‘aviy ma’nosida anglashilib turgan metod haqidagi ta’limot degan tushunchani berish bilan metodologiyaning mohiyatini ochib bo‘lmaydi. Metodologiya, xususan, (tilshunoslik metodologiyasi) falsafaning tarkibiy qismi – gnoseologiya (bilish nazariyasi) bilan uzviy aloqador. Metodologiya – tadqiqotchida kamida uch omilning mujassamlashuvi va uning ilmiy tadqiqotda namoyon bo‘lishidir. **Birinchidan**, tadqiqotchining o‘z tadqiq manbayi haqida qay turdagи bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug‘ullanishi. Demak, bilishning qaysi bosqichida tadqiqot olib borilyapti va tadqiqotchi qanday bilim turini hosil qilmoqda. Falsafada narsa/o‘rganish obyekti haqida tadqiqotchi ikki turdagи bilim hosil qilishi mumkin:

- fahmiy (hissiy, empirik) bilim;
- idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy) bilim.

Har qanday ilmiy tadqiqot yo fahmiy, yo idrokiy yoki ham fahmiy, ham idrokiy bilim olish asosida olib borilishi mumkin. Chunki tadqiqotchi hali o‘rganilmagan o‘rganish – izlanish obyektini ilk marta o‘rganayotganda fahmiy bilim hosil qiladi. Ana shu fahmiy bilim natijalari birlashtirilib, xulosalar qayta ishlanib idrokiy bilim shakllanadi. Ba’zan fahmiy bilim hosil qilinishi bilan shu tadqiqotning o‘zida birdaniga idrokiy bilimlar, xulosalar hosil bo‘lishi mumkin. Har bir turdagи bilimni hosil qilish yo‘li, vosita, usul va maqsadi ham boshqa-boshqa bo‘ladi. Fahmiy va idrokiy bilimni yaqqol tushunib olish, ular orasidagi farqni anglash uchun mutafakkir Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” masnaviysidagi “Ko‘rlar va fil” hikoyati mazmuni bilan tanishish yoki uni qayta esga olish yetarli. Hikoyatda tasvirlanishicha, ko‘rlar Hindistonga borib qoladilar va filni uchratishib, fil haqida dastlabki tasavvurni hosil qiladi. Ular fil haqida eshitishmagan, albatta, tabiiyki filni ko‘rmagan ham edi. Hammasi filni o‘rab olishib, tajribaviy bilimlar hosil qildi. Xartumini ushlagan kishi fil ajdarho ekan, degan dastlabki tasavvur shakllanadi. Dumini ushlab ko‘rgan ko‘zi ojiz kishi esa fil supurgi ekan,

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

uchinchisi qulqolarini paypaslab ko'rib, ikkita supra, to'rtinchisi tishlarini ushlab ko'rib, ikkita ulkan so'ngak, oyoqlarini ushlab ko'rgan kishi to'rtta ustun, qorinlarini paypaslagan esa ulkan nog'ora ekan, degan xulosaga kelgan va ular Hindistondan qaytib kelishgandan keyin donishmand orifning huzuriga borishibdi. Donishmand ulardan "Sizlar filni ko'rdilaringizmi?" degan savol beribdi. Ular "Ha, ko'rdik" deb javob berishibdi. Unda fil haqidagi bilimlarningizni menga bayon qiling, deganda har biri fil haqida bir-biriga o'xshamagan, bir-biriga zid keladigan bilimlarni bayon etishibdi. Shunda orif ularga e'tiroz bildirmaydi va ularning bir-biridan uzilgan xulosalarini umumlashtirib, yangi idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy) bilim hosil qiladi. Bu yaxlit bilim konseptuallashgan, tizimlashtirilgan bilim ko'zi ojizlarning har birining alohida hosil qilgan bilimlaridan keskin farq qiladi. Bu yerda Alisher Navoiy ko'zi ojizlarni fahm bilan biluvchilarga – empiriklarga, orifni esa nazariyotchiga qiyoslaydi. Ana shu tarzda fahmiy va idrokiy bilimni badiiy shakkarda juda yuksak mahorat bilan tasvirlaydi va ana shu sharq tafakkurining mahsuli bo'lgan fahmiy va idrokiy bilim bugungi kunda butun dunyo fanshunosligida – falsafasida empirik va nazariy-ratsional bilish kabi ikki tur bilimni farqlash uchun metodologik asos sifatida foydalanib kelinadi.

**Ikkinchidan**, tadqiqotching tadqiq manbayi/narsaga qay usul bilan yondashishi. Falsafada narsaga yondashishning ikki usuli bor:

- a) nominalistik yondashish; (formal)
- b) dialetik yondashish.

Formal mantiq asosidagi yondashish nominalistik yondashish deyilsa, dialektik mantiq asosidagi yondashish dialektik yondashuv deyiladi. Formal yondashuvda narsalar ajratiladi, dialektik yondashuvda narsalar orasidagi munosabat aniqlanadi. Demak, formal mantiq narsalarni, dialektik mantiq munosabatlarni, ya'ni ziddiyat va o'xshashliklarni aniqlash bilan shug'ullanadi. Ana shu ikki yondashishni farqlash ilmiy metodologik jihatdan juda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchi o'zining tadqiqoti formal asosidami yoki dialektik asosda ekanligini ongli ravishda anglagan holda o'z faoliyatini olib borishi kerak bo'ladi. Ushbu yondashuvlarning birini ijobiy, ikkinchisini salbiy baholash mumkin emas. Fahmiy va idrokiy bilimlarni ham birini kamsitish, ikkinchisini ko'klarga ko'tarish to'g'ri emas. Har biri borliq hodisasini o'rganishda zaruriy bosqich, biri ikkinchisi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Empirik va dilaketik yondashishning (narsani empirik yoki dialektik tushunish va talqin etish)ning o'z tamoyillari bor. Siz buni bilish nazariyasiga – gnoseologiyaga doir tadqiqot, darslik va qo'llanmalardan yana ham chuqurroq o'rganishingiz kerak bo'ladi. **Uchinchidan**, tadqiqotchi o'z obyektiga materialistik yoki idealistik (ruhoniy) nuqtayi nazarda turishi va shu nuqtayi nazardan turib ilmiy tadqiqini olib borishi ahamiyatlidir. Chunki sizning tadqiqotingizni o'qiyotgan kishi siz masalaga materialistik yondashyapsizmi yoki idealistik yondashyapsizmi buni aniqlab olishi kerak. Agar siz idealistik nuqtayi nazardan yondashayotgan bo'lsangiz, sizning ishingizni baholayotgan olim materialistik nuqtayi nazardan munosabatda bo'ladigan bo'lsa, sizning ishingiz ijobiy baholanmasligi aniq. Materialist sizning ishingizga o'z nuqtayi nazaridan yondashayotgan, xolis yondashmayotgan va fliktilizmga berilgan hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda bunday yondashish to'g'ri emas, shuningdek, fanning rivojiga to'sqinlik qiladi. Sizning o'z tadqiq obyektinigizga materialistik yoki idealistik nuqtayi nazaridan yondashishingiz ixtiyoriy. Sizning oldingizga qo'ygan maqsadingiz bu yondashishlardan qaysi birida bo'lishingizni va shu bilan birgalikda sizning dunyoqarashingiz, o'z ideallaringiz qanday yondashishingizni belgilab beradi. Materialistik yondashuv materiya – birlamchi, ong – ikkilamchi degan bosh prinsip asosida o'rganish obyektiga munosabatda bo'lsa, idealistik yondashuvda ruh – birlamchi, borliq, materiya – ikkilamchi degan tamoyil yotadi. Ko'ryapsizki, materialistik va idealistik yondashuv borliqqa ikki xil munosabatda bo'ladi. Shuning uchun bu ikki tadqiqotni, yondashuvni, bir-biriga qo'shib olib borishning imkoniyati yo'q. Bilish, bilim hosil qilish, tadqiqot empirik yoki ratsional bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, formal yoki dialektik asosda olib borilishi mumkin.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON, 2024

Uchinchidan, bu tadqiqotning yondashuvni ham alohidaligini keltirib chiqaradi. Idealistik yoki materailistik yondashuv tadqiqotlarning turli yo‘nalishlarda borishini ko‘rsatadi. Fikri dalillash uchun yana hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” masnaviysidagi “Ma’rifat vodiysining vasfi” degan bobiga murojaat qilamiz. Ma’rifat bu borliq, Haqqi mutlaq haqida ilm hosil qilish. Ana shuni Alisher Navoiy ma’rifat vodiysi deb ataydi. Ma’rifat vodiysida yo‘llar juda ko‘p. Bu yuqorida ta’kidlangan edi: 6 ta yo‘li haqida aytildi. Agar 6 ta yo‘l bir-biri bilan almashgan holda uchranadigan bo‘lsa, bu yerda 8 tadan ortiqroq yo‘l borligini ko‘rishimiz mumkin. Navoiy esa o‘z masnaviysida bu yo‘llar cheksiz ekanligini ta’kidlaydi.

*Ma’rifat vodiysin ondin so ‘ngra bil,  
Dashti bepayonlig‘in nazzora qil.*

Ma’rifat vodiysi bepayon dasht, ilm vodiysi bepayon, sarhadsiz bir maydon demoqchi hazrat Navoiy.

*Kimki bu vodiyg‘a bo ‘ldi muttasif,  
Topti onda hollarni muxtalif.*

Biz ko‘rganimizdek, yo‘llar, holatlar, yondashuvlar omillar bu yerda turli-tuman va ixtilofli. Demak, bu yerda vaziyat ilm vodiysida ixtilofli, qarama-qarshiliklarga boy, deydi hazrat.

*Vodiyedur yuz tuman ming onda yo ‘l,  
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.*

Ilm vodiysida yo‘llar cheksiz, yondashuvlar son-sanoqsiz va biri ikkinchisiga hech qachon o‘xshamaydi.

*Ixtilofi juzv ila kul mundadur –  
Kim taraqqiyu tanazzul mundadur.*

Umumiylik va xususiylik ixtiloflari bunda mavjud, taraqqiy ham tanazzul ham bunda mavjud. Albatta, taraqqiyot va tanazzul nisbiy tushunchalar. Bir hodisaning taraqqiyoti boshqa bir nuqtayi nazardan yondashsangiz, tanazzul bo‘lishi mumkin. Nemis faylasufi Egel insoniyat taraqqiyotini tarixdan avvalgi davr va tarixdan keyingi davrga ajratadi va tarixdan keyingi davr insoniyatning taraqqiy etishi emas, balki tanazzulidir deb baholaydi. Demak, tarixgacha, ma’lum bir nuqtagacha insoniyat taraqqiy etib kelgan va bundan keyin u tanazzulga qarab boradi, deydi va bunga juda ko‘p dalillar keltiradi. Masalan, bugungi bizning sayyoramiz paydo bo‘lguncha davr tarix bo‘lsa, paydo bo‘lgandan keyingi davr tarixdan keyingi davr. Ana shu sayyoramiz uzilish va undagi mavjudotlarning qarama-qarshi harakatlari natijasida o‘zining dastlabki holatini soniyama-soniya yo‘qotib borayotganligini bunga misol qilib keltirish mumkin. Yoki bo‘lmasa, bu bir tomonidan taraqqiyot ikkinchi tomonidan tanazzul. Chaqaloq tug‘ilgandan to ulg‘ayib, keksayib, vafot etguncha u bir tomonidan taraqqiy etib boradi, ikkinchi tomonidan o‘zining oxirgi nuqtasiga yaqinlashib boradi. Demak, tanazzulga yetib boradi. Tug‘ilgan soniyadan u tanazzulga qarab harakatlanadi. *Ixtilofi juzv ila kul mundadur – Kim taraqqiyu tanazzul mundadur*, deganda hazrat taraqqiyot va tanazzul bir narsaning ikki tomoni demoqchi bo‘ladi va buni uqtiradi.

*Yuz tuman rahrav ko ‘rarsen beqaror,  
Har biri bir yo ‘lni aylab ixtiyor.*

Bu yo‘lda rahrav yo‘lovchilar yuz tuman – son-sanoqsiz va beqaror harakatlanadi. Har biri bir yo‘lni tanlagan holatda harakatlanadi.

*O‘z borur yo ‘lig ‘a har bir mustaxir,  
Yo ‘lni aylab o ‘z yo ‘lig ‘a munhasir.*

Har biri o‘zining borayotgan yo‘lida iftixor qiladi va boshqalarning ham o‘z yo‘lidan yurishini xohlaydi, shunga undaydi. Biz yuqorida aytganimizdek, har bir olim o‘zining fan yo‘nalishini to‘g‘ri yo‘l deb biladi va undan iftixor qiladi. Boshqalarning ham ana shu yo‘ldan yurishini xohlaydi. Bu biz yuqorida sanab o‘tgan materialistlar haqida gapiradigan bo‘lsak, materialistlar idealistlarning fikrlarini noto‘g‘ri deydi, idealistlar esa materialistlar noto‘g‘ri yondashyapti deydi. Nominalistlar dialektiklarni qoralasa, dialektiklar nominalistlarni qoralaydi. Empiriklar

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUL

ANDIJON,2024

nazariyotchilarni, nazariyotchilar empiriklarni past baholaydilar. Bu ilmiy bag'rikenglikka zid holat bo'lib, olimning hali kamolotga yetmaganligidan dalolat beradi. Ilmda ham bag'rikenglik mavjud, ya'ni ilmiy talerantlik mavjud. Hech qachon bir kishining olib borayotgan tadqiqotini, bir olim mansub bo'Igan yo'nalishni, bir olim suyanadigan metodologiyani qoralash, salbiy baholash to'g'ri emas va bu ilmiy odobga – etikaga to'g'ri kelmaydi. Muhtaram taqdiqotchilar, siz ilmiy tadqiqot olib borayotganda ana shu tamoyillarga hazrat Navoiyning mana shu hikmatlariga qat'iy rioya qilishlaringiz lozim. Olimda bag'rikenglik va xolislik asosiy fazilat bo'lmog'i lozim. Buni Abu Nasr Forobiy "Fozil kishilar mamlakati" asarida alohida ta'kidlaydi. Olim jismonan sog'lom bo'lishi kerak, ma'nан bag'rikeng bo'lishi kerak. Ana shu ikkita tamoyilga alohida e'tibor bermoq lozimdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhamedov B.E., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>